

MUALLIF QO‘G‘IRCHOG‘I – NOYOB SAN‘AT ASARI



Mamura Umarxodjayeva

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti

katta o‘qituvchisi, s.f.f.d. (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20019743>

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif qo‘g‘irchog‘i oddiy o‘yinchoq emas, balki muayyan ijodkorning qalbi, qo‘li va tafakkuri bilan yaratilgan, yagona nusxadagi noyob san‘at asari ekanligi, u vizual va emotsional ta‘sirga ega, turli materiallar va texnikalardan foydalanib, xarakter, kayfiyat va ichki dunyoni aks ettirishi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: qo‘g‘irchoq, muallif, san‘at, dizayn, rassom, hunarmand, haykaltaroshlik, nusxa, obraz, o‘yinchoq.

Аннотация. В данной статье рассматривается, что авторская кукла – это не простая игрушка, а уникальное произведение искусства в единственном экземпляре, созданное рукой, сердцем и мыслями конкретного художника, обладающее визуальным и эмоциональным воздействием и отражающее характер, настроение и внутренний мир с использованием различных материалов и техник.

Ключевые слова: кукла, автор, искусство, дизайн, художник, мастер, скульптура, копия, образ, игрушка.

Abstract. This article discusses that an author’s doll is not a simple toy, but a unique, one-of-a-kind work of art created with the artist’s hands, heart, and mind, possessing both visual and emotional impact, and reflecting character, mood, and inner world through various materials and techniques.

Keywords: doll, author, art, design, artist, craftsman, sculpture, replica, image, toy.

Muallif qo‘g‘irchog‘i bu ommaviy ishlab chiqarilgan oddiy o‘yinchoq emas, balki muayyan ijodkorning qo‘li, qalbi va tafakkuri bilan yaratilgan noyob san‘at asaridir. Unda g‘oyadan tortib eng kichik detalgacha barcha jihatlar muallif tomonidan puxta o‘ylab chiqiladi. Yaratilayotgan obrazning xarakteri, kayfiyati, hatto ichki dunyosi tasavvur qilinadi va shu g‘oyani amalga oshirish uchun maxsus materiallar, ranglar va texnikalar tanlanadi. Ana shu jarayon qo‘g‘irchoqni takrorlanmas va qimmatli qiladi.

Muallif qo‘g‘irchog‘ini yaratuvchi inson bir vaqtning o‘zida bir nechta kasb egasidir. U dizayner, chunki obraz konsepsiyasini ishlab chiqadi; rassom, chunki yuz ifodasi va ranglar uyg‘unligini yaratadi; haykaltarosh yoki kulol, chunki tanani shakllantiradi; tikuvchi va kashtachi, chunki liboslarni tikib, bezaklar bilan boyitadi; sartarosh va bo‘yatish rassomi, chunki soch turmagi va chehra ohanglarini yaratadi. Ya‘ni muallif qo‘g‘irchog‘i – turli hunarmandchilik yo‘nalishlarining birlashgani natijasidir. Eng muhimi, har bir muallif qo‘g‘irchog‘i odatda bitta nusxada mavjud bo‘ladi. Uni aniq shu ko‘rinishda qayta yaratib bo‘lmaydi. Chunki har bir ish jarayonida ijodkorning kayfiyati, ilhomi va qo‘l mehnati o‘ziga xos iz qoldiradi. Shu bois bunday

qo'g'irchoqlar kolleksionerlar tomonidan san'at obykti sifatida qadrlanadi. Muallif qo'g'irchog'ining o'ziga xos xususiyati uning xarakteri va "ruhi" borligidadir. Ular tomoshabinni befarq qoldirmaydi kimgadir iliqlik va mehr bag'ishlasa, kimdadir sirli yoki jiddiy kayfiyat uyg'otishi mumkin. Go'yo ular inson kabi o'z tabiatiga ega, his-tuyg'u uyg'ota oladi. Shu jihatdan muallif qo'g'irchog'i nafaqat vizual obraz, balki emotsional ta'sir vositasidir.

Qo'g'irchoq obrazi turlicha bo'lishi mumkin: qiz yoki o'g'il bola, hayvon yoki hatto hasharot, real hayot qahramoni yoki afsonaviy ertak personaji, multfilm yoki kino obrazi, yoxud muallif tasavvurida tug'ilgan mutlaqo yangi qahramon. Bu yerda cheklov yo'q, barchasi ijodkorning tasavvuriga bog'liq. Bir qo'g'irchoqni yaratishda turli materiallar: yog'och, farfor, polimer loy, mato, metall, tabiiy tolalar va boshqalar qo'llanilishi mumkin. Shuning uchun ularni ehtiyotkorlik bilan saqlash talab etiladi. Qo'g'irchoqlarni harorat va namlik keskin o'zgarmaydigan xonada saqlash maqsadga muvofiq. Ularni plastik yoki karton paketlarda uzoq muddat saqlash tavsiya etilmaydi, chunki bu materiallarga zarar yetkazishi mumkin. Kolleksiyaning asl holatda saqlash uchun qo'g'irchoqlarni kislotasiz qog'oz yoki tabiiy mato bilan o'rab, to'g'ri sharoitda joylashtirish kerak.

Bugungi kunda muallif qo'g'irchoqlariga qiziqish butun dunyo bo'ylab mavjud bo'lib, ular ko'pincha qo'l mehnati va badiiy qiymati tufayli yuqori baholanadi. Shuning uchun har kim ham katta kolleksiya tuzish imkoniga ega emas, va ilgari bu mashg'ulot yengil-yelpi hobbi sifatida qaralsa, hozirgi kunda katta kolleksiya egalari orasida erkaklar ham uchraydi. Ayrim mamlakatlarda, jumladan Rossiyada, muallif qo'g'irchoqlari bozori G'arb davlatlariga nisbatan kamroq rivojlangan bo'lsa-da, qiziqish asta-sekin oshib bormoqda. Bu jarayon ko'rgazmalar, festivallar va ixtisoslashgan galereyalar orqali yanada ommalashtirilmoqda, chunki muallif qo'g'irchog'i nafaqat o'yinchoq, balki san'at, xarakter va ijodkor qalbining ifodasi bo'lib, insonni his qilishga, estetik zavq olishga va go'zallikni qadrlashga undaydi. Masalan, Yuliya Sochilina bolaligidan ijodga bo'lgan ishtiyoqini kashf etgan rassom va badiiy qo'g'irchoq ustasi, dastlab qo'lda chizilgan qog'oz qo'g'irchoqlardan boshlab, bo'yalgan plastilin va loydan tayyorlangan asarlar yaratgan. Keyinchalik Vasnetsov Abramsevo san'at va sanoat kollejining Yog'och, tosh va suyakni badiiy qayta ishlash bo'limini tamomlagan. Dastlab, rassom qo'g'irchoqlarga bo'lgan ishtiyoqini jiddiy qabul qilmadi. Biroq vaqt o'tishi bilan u aynan shu narsa kerakligini va unga qiziqishini tushundi. O'shandan beri Yuliya badiiy qo'g'irchoqlar yaratib, turli ko'rgazmalarda ishtirok etmoqda. Yuliya Xochilining qo'g'irchoqlari yog'ochdan yasalgan, tabiiy va mehnat talab qiladigan material. Rassomning aytishicha, u ilhom va g'oyalarni tom ma'noda hamma joydan: filmlar, kitoblar, tasviriy san'atdan oladi. Yuliya Sochilina barcha qo'g'irchoqlarini bitta nusxada yaratadi va ular uchun qimmatbaho matolardan va antiqa dantellardan kiyimlarni qo'lda tikadi. Rassom muntazam ravishda ixtisoslashtirilgan ko'rgazmalarda qo'g'irchoqni yangi modellarini namoyish etadi. Yuliya Sochilining asarlari bir necha bor Rossiya Federatsiyasi Xalq amaliy san'ati fondi va Moskvadagi xalqaro qo'g'irchoqlar salonining sovrinlarini qo'lga kiritgan. **Yuliya Sochilina yaratgan "Valentina" (1-rasm)** nomli mualliflik qo'g'irchog'i yuksak badiiy mahorat va nozik did namunasidir. Bu asar nafaqat estetik jihatdan jozibali, balki material tanlovi bilan ham alohida ahamiyatga ega. "Valentina" qo'g'irchog'i daraxatdan yasalgan. Tabiiy yog'ochdan ishlangani tufayli uning qiyofasida o'ziga xos iliqlik va jonlilik hissi mavjud. Yog'ochning tabiiy tuzilishi va ustalarcha ishlov berilgan yuzasi qo'g'irchoqqa mustahkamlik bilan birga nafosat bag'ishlaydi. Bunday material qo'g'irchoqni oddiy o'yinchoq emas, balki kolleksion badiiy obyekt darajasiga olib chiqadi. Qiyofasi XIX asr aristokratik uslubini eslatadi. Yuzi farfor kabi silliq ishlangan, chizgilari aniq va muvozanatli, chuqur va ma'noli ko'zlari, nozik lablari va muloyim ifodasi obrazga hayotiylik baxsh etadi. Soch turmagi yuqoriga nafis qilib

jamlangan bo‘lib, u rang-barang mayda gullar bilan bezatilgan. Bu bezaklar qo‘g‘irchoqqa romantik kayfiyat bag‘ishlaydi. Libosi och zarhal tusdagi nafis matodan tikilgan. Ko‘ylakning yuqori qismi nozik to‘r (krujevo) bilan bezatilgan, yenglari yengil va shaffof. Bel qismi korset uslubida ishlangan bo‘lib, qomatni zebo namoyon qiladi. Qo‘llaridagi oq qo‘lqoplar va zarhal brasletlar, bo‘ynidagi marvaridli marjon va medalyon obrazning asilzodaligini ta’kidlaydi. “Valentina” bu shunchaki qo‘g‘irchoq emas, balki yog‘ochga jon bag‘ishlangan san’at asaridir. Unda tarixiy ruh, romantika va ayollik latofati uyg‘unlashgan. Yuliya Sochilining mahorati tufayli bu qo‘g‘irchoq tomoshabinni o‘tmishning nafis va zebo muhitiga yetaklaydi.



1-rasm. Valentina

Yuliya Sochilina yaratgan “Favoritka” (2-rasm). mualliflik qo‘g‘irchoq‘i yuksak badiiy did va nozik hunarmandchilik mahorati mujassami bo‘lgan noyob asardir. U daraxatdan, ya’ni tabiiy yog‘ochdan ishlangan bo‘lib, bu holat qo‘g‘irchoqqa o‘ziga xos mustahkamlik, tabiiylik va iliq ruh bag‘ishlaydi. Yog‘ochning jonli tuzilishi va mukammal ishlov berilgan yuzasi asarga haykaltaroshlikka xos salobat va barqarorlik hissini beradi. Qo‘g‘irchoqning qiyofasi tarixiy aristokratik obrazni eslatadi. Yuzi farfor kabi silliq va oppoq tusda ishlangan, chizgilari aniq va muvozanatli. Ko‘zlari sokin, ammo teran ma’noli qarashlarida ichki ishonch va yuksak mavqe seziladi. Lablarining yengil ifodasi unga nafosat va salobat bag‘ishlaydi. Sochlari mayda burmalar shaklida badiiy tarzda ishlangan bo‘lib, ular qiyofaga hashamatli va tantanaviy ruh qo‘shadi. Libos qo‘g‘irchoq obrazining eng ta’sirchan jihatlaridan biridir. Qora va jigarrang tuslar uyg‘unligidagi ko‘ylak boy bezaklar, tilla rang naqshlar va ko‘p qatlamli matolar bilan to‘ldirilgan. Korset uslubidagi yuqori qismi qomatni nozik va zebo ko‘rsatadi. Yenglaridagi oq to‘r bezaklar va qo‘lqoplar aristokratik uslubni yanada kuchaytiradi. Matolarning turli fakturasi yaltiroq, to‘rli va qalin qatlamli qismlar kompozitsiyaga chuqurlik va harakat bag‘ishlaydi. Qo‘g‘irchoq qo‘lidagi veyer va libos qismida joylashgan niqob obrazning dramatik mazmunini boyitadi. Niqob sir va hukmronlik ramzi sifatida talqin qilinishi mumkin. Bu detallar “Favoritka”ning nafaqat go‘zal, balki kuchli va ta’sirchan shaxs ekanini anglatadi. Poy qismida joylashgan hosil va meva elementlari kompozitsiyani mukammallashtiradi va hashamat, farovonlik ramzini ifoda etadi. Barcha detallar aksessuarlar, mato qatlamlari, yog‘och tananing shakli o‘zaro uyg‘unlikda ishlangan. “Favoritka” bu shunchaki qo‘g‘irchoq emas, balki yog‘ochga jon bag‘ishlangan san’at

asaridir. Unda tarixiy ruh, ayollik latofati, hashamat va sirlilik uyg'unlashgan. Muallifning har bir detalga bo'lgan ehtiyotkor munosabati qo'g'irchoqni kolleksion qimmatga ega bo'lgan noyob badiiy obyekt darajasiga ko'taradi.



2-rasm. Favoritka

Alevtina Yakovleva yaratgan “Taisiya” (3-rasm) nomli mualliflik qo'g'irchoq nafosat, sokinlik va ichki madaniyat mujassami bo'lgan noyob san'at asaridir. U chinnidan (farfordan) yasalgan bo'lib, bu material qo'g'irchoqqa noziklik, yorug'likni o'tkazuvchi shaffoflik va klassik salobat bag'ishlaydi. Chinnining tabiiy siliqligi yuz ifodalarini yanada jonli va ta'sirchan namoyon qiladi. Qo'g'irchoqning qiyofasi ilk qarashdayoq muloyim va o'ychan kayfiyat uyg'otadi. Yuzi oppoq, farfarga xos yumshoq yaltiroq tusga ega. Chizgilari aniq va muvozanatli, keng peshona, nozik qoshlar, tabiiy shakllangan lablar va sokin, chuqur ma'noli ko'zlar obrazga hayotiylik bag'ishlaydi. Qarashlarida vazminlik va ichki fikrchanlik seziladi, go'yo u o'tmishning hikmatini o'zida saqlayotgandek. Sochlari uzun va mayin burmalarda yelkalariga tushgan. Tabiiy qizg'ish-jigarrang soch rangi chinnining oqligi bilan kontrast hosil qilib, obrazni yanada jozibador ko'rsatadi. Boshidagi klassik uslubdagi qora shlyapa obrazga XIX asr oxiri yoki XX asr boshlariga xos aristokratik ruh bag'ishlaydi. Libosi esa kompozitsiyaning muhim qismi hisoblanadi. Ko'k-yashil tusdagi uzun ko'ylak qomatni salobat bilan namoyon etadi. Yuqori qismidagi oq to'rli (krujevo) bezaklar va ichkaridagi oq libos qatlami obrazga tozalik va poklik ramzini qo'shadi. Bel qismidagi aniq kesim va to'g'ri proporsiyalar qo'g'irchoqqa muvozanat va klassik go'zallik bag'ishlaydi. Matoning tabiiy tushishi va og'irligi harakat hissini yaratadi, go'yo Taisiya yengil qadam tashlayotgandek. Qo'lidagi ingichka tayoqcha (yoki aksessuar) obrazga nafislik va maqsadlilik ifodasini qo'shadi. Bu detal qahramonning ichki tartibi va intizomini anglatishi mumkin. Qo'g'irchoqning pozasi tik va ishonchli, bu uning karakterini ochadi u muloyim, ammo irodali, sokin, ammo ichki kuchga ega. Tahlil nuqtai nazaridan, Taisiya obrazi klassik ayol timsoli sifatida talqin qilinishi mumkin. Unda ortiqcha drammatizm yo'q, aksincha, sokinlik, zehn va madaniyat ustuvor. Ranglar palitrasi salqin va tabiiy, bu esa obrazni romantik emas, balki vazmin va hayotiy qiladi. Chinni materiali esa obrazning pokligi va nozikligini yanada kuchaytiradi. Umuman olganda, “Taisiya” bu oddiy qo'g'irchoq emas, balki chinnida mujassam etilgan

xarakterdir. Alevtina Yakovlevaning mahorati orqali yaratilgan bu asar tomoshabinni sokin tafakkurga chorlaydi, estetik zavq bag'ishlaydi va klassik go'zallik qadriyatini yodga soladi. Bu qo'g'irchoq kolleksion qimmatga ega bo'lib, nafaqat bezak, balki ma'naviy va badiiy qadriyat sifatida ham ahamiyatlidir.



3-rasm. "Taisiya" chinni qo'g'irchog'i

Mazkur mualliflik qo'g'irchog'i zamonaviy badiiy san'at namunasi sifatida qaralishi mumkin bo'lgan antropomorf obrazdir. U ommaviy ishlab chiqarilgan o'yinchoq emas, balki individual ijod mahsuli bo'lib, estetik, kompozitsion va emotsional qiymatga ega san'at obyekti hisoblanadi. Qo'g'irchoq inson qiyofasida yaratilgan bo'lib, proporsiyalar real anatomiyaga yaqin, biroq badiiy ideallashtirish prinsipi asosida biroz o'zgartirilgan. Bosh qismi tanasiga nisbatan sal kattaroq tasvirlangani obrazga bolalarcha noziklik va hissiy ta'sir kuchini beradi. Yuz tuzilishi simmetrik, ko'zlar gorizontall o'q bo'ylab muvozanatli joylashgan, burun va lablar markaziy vertikal chiziqqa mos ravishda modelirovka qilingan. Yuz ifodasi muloyim va xayolchan bo'lib, u tomoshabinda empatik qabulni shakllantiradi. Material xususiyatlariga ko'ra yuz va qo'l qismlari qattiq plastik modda polimer loy (glina) yoki farfor turidagi materialdan tayyorlangan bo'lib, ularda mayin tekstura va yuqori darajada detalizatsiya kuzatiladi. Bu material shaklni aniq modelirovka qilish va realistik yuz ekspressiyasini berish imkonini yaratadi. Tananing asosiy qismi tekstil konstruksiyadan iborat bo'lishi ehtimol, bu esa kompozitsion erkinlik va yengillikni ta'minlaydi. Soch qismi tolali materialdan ishlangan bo'lib, tabiiy to'liqlikni struktura obrazga dinamiklik bag'ishlaydi. Libos yengil va qatlamlil matodan tikilgan, uning fakturasi va yumshoq tushishi qo'g'irchoq hajmini vizual ravishda boyitadi.

Kompozitsion jihatdan qo'g'irchoq markaziy dominant sifatida qabul qilinadi. U stulda o'tirgan holatda tasvirlangan bo'lib, qomatning yengil burilishi dinamik barqarorlik hosil qiladi. Vertikal va gorizontall chiziqlar o'zaro muvozanatga kirishgan. Orqa fonning sokin ko'k rangda berilishi asosiy obrazni oldingi planga chiqaradi va fazoviy chuqurlikni ta'minlaydi. Yorug'lik yon tomondan tushib, yuz relefi va libos qatlamlarida yumshoq soya hosil qilgan, bu esa hajmdorlik va realistiklikni kuchaytiradi.

Stil jihatdan qo'g'irchoq romantik va nostalgik yo'nalishga yaqin. Libos detallari va qo'ldagi kichik chiroq retro element sifatida qabul qilinishi mumkin. Bu atribut obrazga ramziy ma'no

yuklashi, ehtimol yorug‘lik manbai sifatida ma’naviy poklik yoki ichki dunyo timsoli bo‘lishi mumkin. Shu orqali obraz nafaqat vizual, balki semantik qiymat ham kasb etadi.

Umuman olganda, mazkur mualliflik qo‘g‘irchoq‘i funksional o‘yinchoqdan ko‘ra ko‘proq estetik va kolleksion ahamiyatga ega bo‘lgan amaliy-badiiy san‘at obyektidir. Unda morfologik aniqlik, material sifatlari, kompozitsion muvozanat va koloristik uyg‘unlik bir butun badiiy tizimni hosil qilgan. Obraz emotsional ta’sir kuchiga ega bo‘lib, bolalik, noziklik va xayolchanlik arxetiplarini ifodalaydi. Shu jihatlari bilan ushbu qo‘g‘irchoq zamonaviy mualliflik qo‘g‘irchoq san‘atining to‘liq shakllangan namunasi sifatida baholanishi mumkin.



4-rasm. Vivien – Yozgi oqshom

Xulosa qilib aytganda, Alevtina Yakovleva va Yuliya Sochilina ijodidagi mualliflik qo‘g‘irchoqlari bir xil san‘at turiga mansub bo‘lsa-da, ularning g‘oyaviy yo‘nalishi va badiiy ifodasi o‘rtasida sezilarli farq mavjud. Sochilina asarlarida qo‘g‘irchoq obrazi chuqur ma’no, tarixiy ruh va realistik xarakter orqali ochib berilib, u haqiqiy san‘at asari darajasiga ko‘tariladi. Detallarning puxtaligi, libos va obraz uyg‘unligi orqali mukammal kompozitsiya yaratiladi. Yakovleva ijodida esa qo‘g‘irchoqlar ko‘proq estetik zavq bag‘ishlovchi, interyerni boyituvchi dekorativ xarakterga ega bo‘lib, tashqi ko‘rinish, uslubiy bezak va obrazning nafosatiga alohida e’tibor qaratiladi. Demak, birida badiiy-falsafiy mazmun va tarixiylik ustuvor bo‘lsa, ikkinchisida uslubiy go‘zallik va interyer estetikasi yetakchi o‘rinni egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Б.П.Голдовкий Художественные куклы. Большая иллюстрированная энциклопедия. – Москва. 2009.
2. Ф.Ананьева. Куклы мира. – Москва. Мир энциклопедий Аванта, Астрель, 2008.
3. Е.В.Лопаткина Авторская кукла конца XX – начала XXI века в России: история, типология, изобразительная специфика. Дис. канд. иск. СПб., 2013.